


*Yanvar –iyul 2018 yil*


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar–iyul oylarida 5755,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 foizga oshdi. Shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 112,9 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 103,6 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,2 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyul oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati**  
(mlrd. so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahrining ulushi 23,8 foizni, Urgut tumani 12,2 foiz, Pastdarg'om tumani 7,5 foiz, Bulung'ur tumani 6,6 foiz va Kattako'rg'on shahri 6,0 foiz chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, (foizda)**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1540,3 ming so'mni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-iyul oylarida 1264,1 ming so'mni tashkil qilgan edi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri 3944,0 ming so'm, Samarqand shahri 2575,0 ming so'm va Bulun'gur tumanida 2104,5 ming so'm kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 112909,1 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,0 foizni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1540,3 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri 2575,0 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 102,3 foizni, Kattaqo'rg'on shahri




3944,0 ming so'm va 103,8 foizni, Jomboy tumani 1103,1 ming so'm va 106,8 foizni, Samarqand tumani 1326,9 ming so'm va 112,9 foizni, Urgut tumani 1454,4 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 98,6 foizni tashkil qildi.

Hududlar nomi	<i>Ming so'm</i>	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1540,3</b>	<b>102,0</b>
Samarqand sh.	2575,0	102,3
Kattaqo'rg'on sh.	3944,0	103,8
Bulung'ur	2104,5	100,1
Jomboy	1103,1	106,8
Ishtixon	979,3	100,4
Kattaqo'rg'on	957,1	100,3
Narpay	1125,3	105,7
Nurobod	1756,2	106,7
Oqdaryo	1157,9	100,7
Payariq	1056,2	108,6
Pastdarg'om	1272,8	99,5
Paxtachi	1655,6	101,2
Samarqand	1326,9	112,9
Tayloq	924,6	99,1
Urgut	1454,4	98,6
Qo'shrabot	1670,9	102,1

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 3835,8 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 66,6 foizni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi 1392,4 mlrd. so'mni, o'tgan yilga nisbatan 104,2 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 24,2 foizni tashkil etdi.